

## YADRO XAVFSIZLIGI SOHASIDAGI VAKOLATLI ORGANLAR TIZIMI VA ULARNING VAKOLATLARI

*Alfraganus universiteti “Tibbiyot” fakulteti  
“Stomatologiya” yo’nalishi  
2-kurs talabalari **Berdiyeva Shaxnoz,**  
**Yo’ldosheva Madina,**  
**Sotiboldiyev Ozodbek**  
shahnozberdiyeva0@icloud.com  
[ozodbeksotiboldiyeva@icloud.com](mailto:ozodbeksotiboldiyeva@icloud.com)*

### Аннотация

Mazkur maqolada atom energiyasidan foydalanish sohasida olib borilgan chet el izlanishlari, xalqaro tashkilot va davlatlarning bo’lib o’tgan yadro va radioaktiv avariyalarga o’z pozitsiya va qarashlari, hamda olimlarning davlatlar xulosalarini o’rgangan holda bergan fikrlari yoritilgan. Tahlilchi, tadqiqotchilarning atom energiyasi sohasidagi hisobotnomalari taqdimi haqida so’z yuritilgan. Hamda, chet el tajribasi va xalqaro tashkilot ko’magi, xalqaro shartnomlarni ko’rib chiqqan holda O’zbekistonda olib borilayotgan tajribalar haqida xabar berilib, O’zbekiston Respublikasi Q onunchiligida qabul qilingan Prezident qarori va farmonlari tahlil qilingan.

**Kalit so’z:** GES, AES, MAGATE, atom energiyasi, Chernobil, Fukusima, yadro va radioaktiv avariya

## СИСТЕМА УПОЛНОМОЧЕННЫХ ОРГАНОВ В ОБЛАСТИ ЯДЕРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И ИХ ПОЛНОМОЧИЯ

### Аннотация.

В данной статье освещены зарубежные исследования, проводимые в области использования атомной энергии, позиции и взгляды международных организаций и стран по поводу прошлых ядерных и радиационных аварий, а также мнения ученых после изучения выводов стран. Обсуждалось представление докладов аналитиков и исследователей в области атомной энергетики. При этом был доложен зарубежный опыт и поддержка международных организаций, международные соглашения, проанализированы решения и указы Президента, принятые Законодательным собранием Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** ГЭС, АЭС, МАГАТЭ, атомная энергетика, Чернобыль, Фукусима, ядерные и радиационные аварии.

## THE SYSTEM OF AUTHORIZED BODIES IN THE FIELD OF NUCLEAR SAFETY AND THEIR POWERS

### Abstract

This article covers the foreign research conducted in the field of nuclear energy use, the positions and views of international organizations and countries on the past nuclear and radioactive accidents, as well as the opinions of scientists after studying the conclusions of the countries. The presentation of reports by analysts and researchers in the field of atomic energy was discussed. At the same time, foreign experience and the support of international organizations, international agreements were reported, and the decisions and decrees of the President adopted by the Legislature of the Republic of Uzbekistan were analyzed.

**Key word:** HPP, NPP, IAEA, atomic energy, Chernobyl, Fukushima, nuclear and radioactive accidents

Texnologiyalar asrida yashar ekanmiz, texnikalarsiz hayot tarzini boshimizdan kechirganimizga qaramay hozirgi paytda u siz yashash jarayonini tahmin qilishga qoʻrqamiz. Bilamizki, inson ehtiyoji uchun tinimsiz xizmat qiladigan texnikalar energiyadan quvvat oladi. Hamda, butun bir jamiyatning oʻz ehtiyojlari uchun ishlatadigan texnik asboblari uchun ketadigan energiya sarfini hisob kitob qilish va uni xalqqa taʼminlab berish biz bilganimizdan koʻra juda katta jarayon hisoblanadi. Negaki, boshqa omillar kabi davlatning har tomonlama rivojlanishiga olib boruvchi yoʻllarning ildizi energiyaga taqaladi. Bunga misol keltiradigan boʻlsam, davlatning asosan rivojlanish jarayoni koʻp hollarda unga chetdan kirib keladigan investitsiyaga bogʻliqdir. Toshkent davlat yuridik univesiteti oʻqituvchisi Nishonov Abdulloh oʻzining “Atom energiyasining xavfsizligini taʼminlashning xalqaro-huquqiy asoslari” nomli maqolasida bu haqida shunday fikr beradi.

“Davlat xalqaro hamjamiyatda oʻz oʻrniga ega boʻlishi uchun oʻzi boshqa davlatlarga investitsiya chiqarishi bilan birga oʻz hududiga ham chet davlatlarning investitsiyalarini kiritishga harakat qilishi kerak. Oʻsha jarayonda energiyaning qanchalik muhimligini koʻrishimiz mumkin. Vaholanki, investitsiya kiritayotgan davlat keyingi istiqboli uchun albatta, investitsiya kiritmoqchi boʻlgan davlatning energiya taʼminotiga birinchi oʻrinda eʼtibor qaratadi.”<sup>1</sup>

Har bir investor oʻz gʻoyalari va investitsiyalarining oʻz samarasini koʻrish ehtimolini davlatning har tomonlama birinchi navbatda esa, energiya tomonlama

<sup>1</sup> “Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” jurnali  
<https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N33>

qulayligini hisobga oladi. Chunki, ishga tushiriladigan katta g'oyalar katta miqdorda energiya talab qiladi. Agarda davlat energiya tomonlama oqsaydigan bo'lsa, bu go'yalarning uzoq yashashi yoki kutilgan natija kutilgan paytdan kechikishiga qisqa qilib aytganda ishning muqim tarzda ketishida to'siq bo'lishi mumkin. Shu sababli ham davlatning rivoji va xalqaro hamjamiyatdagi o'rni uchun energiya ta'minoti juda ham muhim. Shu paytda biz energiyani qayerda olamiz degan savol albatta tug'ilishi mumkin. Bilamizki, energiya olishning bir qancha tur va usullari bo'lib, misol tariqasida yer qazilma boyliklaridan energiya olish, shamoldan energiya olish, quyosh nuridan energiya olish hamda suvdan energiya olish kabi turlari bor. Hamma narsaning foydasi o'laroq zarari bo'lgani kabi bu turdagi energiya olish usullari ham yerni ancha charchatadi. Masalan, Yer qazilma boyliklarini qazib olish jarayonining o'zi katta energiya sarfiga olib keladi. Tabiiy boyliklarni qazib olish jarayonidagi vaqt, mablag', kuch, ishchi kuchi uning inson hayotiga xavfi, bundan tashqari doimiy yer qazilishlari va yer ostida paydo bo'ladigan bo'shliqlar yerni eroziyaga va har xil yer ko'chishi hamda yer qimirlashiga olib kelishi mumkin omillar juda ko'p. Yoqilg'ini yoqib energiya olish usuliga keladigan bo'lsak, bu jarayonda atmosferaga chiqadigan is gazining ortishi inson hayotiga xavfi, iqlim o'zgarishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holarlari juda ko'p. Yoqilg'ini yoqib energiya olish usuliga keladigan bo'lsak, bu jarayonda atmosferaga chiqadigan is gazining ortishi inson hayotiga xavfi, iqlim o'zgarishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holarlari juda ko'pdir. Quyosh nuridan va shamoldan olinadigan bizning iqlim sharoitimiz sababli katta natija bermaydi. Bundan tashqari, suvdan olinadigan energiya usuliga keladigan bo'lsak, ancha samarali bo'lishiga qaramay Hidroelektro energiya stansiyalar (bundan keying matnlarda GES)ning faoliyati daryo suvlarini kamayishiga va buning natijasida ekologik muhitni buzilishiga olib kelishi kutilmoqda. Ammo, bizning hozirgi paytdagi ekologiyani qutqarib qolish davridagi birinchi maqsadimiz bu - bu bizga kerak bo'lgan energiya miqdorini boshqa ekologik muammolarni keltirib chiqarmasdan ta'minlashdir. Shu sababli bizda energiyani ta'minlash uchun boshqa usullarni ko'rishdan boshqa iloj yo'qligini ko'rishimiz mumkin.

Shunday ekan bizda keyingi energiya manbayi bu atomdan energiya olish usulidir. To'g'ri, boshqa energiya ta'minotidan ko'ra, yadrodan energiya olish juda xavfli va uning xavfsizligi yetarlicha ta'minlanmaganligi sababli u insoniyat olamini juda katta xavf ostiga qo'yishi mumkin. Bu faqatgina atomdan energiya olish sohasi yetarlicha o'rganilmaganligi, sohaning xavfsizlik darajasi belgilanmaganligi, uni o'rganish uchun bizda kerakli bilim va tajribaning kamligi oqibatida bo'lishi mumkin. Yadrodan energiya olish sohasi hamma tomonlama hali qirralari ochilmagan, misli ko'rilmagan yangilik va izlanishlarga boy sohadir. Yadrodan energiya olish davlat siyosiy va iqtisodiy taraflama ham, harbiy sohada ham, fizika sohasida ham, sanoat



sohasida ham foydalari juda ko'p. Ammo shunga qaramay, Daryo.uz ommaviy axborot vositasining xabar berishicha, atom energiyasi sohasidagi izlanishlar davrida

**2019-yilgi Germaniyaning iqtisodiy tadqiqotlar bo'yicha yetakchi instituti – DIW Berlin yaqinda atom energetikasi haqidagi izlanishlar natijasida,**

**“Juda qimmat va xatarli: atom energetikasi iqlimga do'st energota” minot emas” nomli hisobot e'lon qilgan.**<sup>2</sup> DIW Berlin o'zining web-saytida atom energiyasi haqidagi izlanishlar davomida kelingan xulosalar va uning jamiyatga qanday katta xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan omillarni hisobga olgan holda, atomdan energiya olish usulini qoralagan. ((Manba bering))Xullas, hujjatda keltirilishicha, DIW Berlinning iqtisodiy tahlilchilari barcha omillarni inobatga olgan holda bajargan hisob-kitoblariga ko'ra, quyidagi ikkita muhim xulosaga kelgan:

**1) yadro energetikasi avvallari sof va arzon energiya manbai bo'lmagan;**

**2) u kelajakda ham bunday bo'lmaydi.**

Bu maqolada institut o'z asoslarini ko'proq tarixiy tajribalar bilan bog'lab, bo'lib o'tgan vaqealardan kelib chiqqan xulosalarni o'rganib mazkur xulosalarga kelishgan. Bunga asos qilib, ularning aytishicha, atom energetikasini tijorat maqsadlari uchun yo'naltirishi aslida 1940-yillardagi harbiy sanoatni rivojlantirish konsepsiyasi yuzasidan kelib chiqqan nojo'ya oqibatdir. Negaki, o'sha paytlarda atomdan energiya olish juda arzon energiya manbasi sifatida qaralib, bu o'sha davr olimlari uchun juda katta optimizm uyg'otgan. Ammo, 1950-yillarga kelib, atom energetikasi obyektlarining qurilish va ekspluatatsiya masalalaridagi mislsiz xarajatlar tufayli bu soha an'anaviy energetika sohalari bilan iqtisodiy raqobat qila olmasligi ma'lum bo'lgan. Chunki, atom elektr stansiyalari qurilishi hajmining ortishi ham umumiy ko'lamdagi tejamkorlikni taqdim qila olmadi. Aksincha, atom elektr stansiyalari soni oshgani bilan ular ishlab chiqargan har bir kilovatt elektr energiyasining narxi ham oshib boraverdi. Buning mantig,i juda oddiy: yangi AES qurilgach, unga sarflangan xarajatlarni qoplashga kirishiladi). Vaholanki, odatda, u yoki bu texnologiya mukammal bir nuqtaga yetgach, uning mahsulotlari yoki xizmatlari narxi pasaya boshlaydi. Biroq atom energetikasi bilan bu qoida ish bermagan. AES ishlab chiqargan elektr energiyasi narxi muttasil ravishda, faqat oshgan. Bu fenomen hatto muayyan ilmiy adabiyotlarda ham alohida ko'rib chiqiladi.

Bunga qo'shimcha qilib, AQSHning “Amerika ovozi” jurnalida ham **2011yilgi Yadroviy energiya sohasining kelajagi qanday?** nomli maqolasida tarixdagi yadro va radiatsiyaviy avariyalardan keyingi kuzatilgan voqealar

<sup>2</sup> Daryo.uz 28.08.2019 “Atom energetikasi: juda qimmat va xatarli” <https://daryo.uz/2019/08/23/atomenergetikasi-juda-qimmat-va-xatarli>

<sup>3</sup> Daryo.uz 28.08.2019 “Atom energetikasi: juda qimmat va xatarli”

<https://daryo.uz/2019/08/23/atomenergetikasi-juda-qimmat-va-xatarli>

natijasida Yaponiya, Xitoy kabi davlatlarning AES lani qurilishi olib borilayotgan bir paytda ularning sekinlashtirilganligi chuqur izlanishlardan keyin yakuniy xulosa stansiyalar qurilishini to‘xtatish bo‘lishi mumkinligiga ishora qilgan. Ushbu maqolada bu holat bo‘yicha olim va instituti tahlil xodimlarining bir qancha fikrlari ham keltirilgan. Unga ko‘ra, Vashingtondagi Brukingz tahlil institutida energetika bo'yicha loyiha rahbari **Charlz Ebinger** jahonda ishlab chiqarilayotgan elektr quvvatining **14 foizi** yadro energiyasi hissasiga to‘g‘ri keladi deya bu borada shunday xulosa bergan, "Agar undan voz kechsak, izlanishlarni tashlab qo'ysak, deydi u, ko'mir kabi an'anaviy manbalarga tobeligimiz kuchayadi"<sup>2</sup>. AQSh Yadro energiyasi instituti direktori

**Edrian Xeymer Ebinger**ni fikriga qo‘shilgan holda yadroviy yoqilg‘ining kichik bir qismi bir tonna ko‘mir beradigan energiya tengligini takidlab, "Teploelektrostansiyalarda elektr quvvati olish uchun kuniga 80-100 vagon ko'mir yoqiladi", - deydi.<sup>3</sup> Bu xulosani tahlil qiladigan bo‘lsak, u o‘z fikrida agarda AES lardan voz kechadigan bo‘lsak, energiya uchun katta miqdordagi ko‘mirning yoqilishiga qarab bo‘lishimiz. Hamda bu ketishda tez orada tabiiy qazilmalarning tugashi va biz bu bilan uzoqqa bormasligimiz va ko‘mir bilan cheklanib qolish xavfli ekanligini takidlamoqda. Ammo, shu paytda Xitoy va

Hindiston muqobil energiya manbalariga o‘tish haqida reja qilishgan. Xitoy borasida Ebinger o‘z qarashini Xitoy bu borada ilg'or bo'lib, 23 ta yadro reaktori qurilayotganligi va yaqin kelajakda yana 60 yoki 70 tasini qurish rejasi bor. Ammo hozircha ishni sekinlashtirib, xavfsizlik standartlarini qayta ko'rib chiqmoqchiligi haqida ma‘lumot beradi. Bu fikrga Kris Flain "Fukusima hodisasi jahon yadro sanoati tarixida so'nggi sahifa bo'ladimi, yo'qmi, buni Xitoyga qarab bilamiz" deya javob qilgan. Albatta ko‘rib, turganimizdek, bu tadbir muhokamalar 1986-yilgi Chernobil fojiasi va 2011-yilgi Fukusima AESida sodir bo‘lgan voqealar natijasida ko‘tarilgan. Xalqaro atom energiyasi agentligi (keying matnlarda XAEA) bu fojialarga “insonlar, atrof-muhit yoki ob‘ekt uchun jiddiy oqibatlariga olib kelgan hodisa”<sup>4</sup> deya tarif bergan. Bundan tashqari, Atom energiyasi natijasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan falokatlar bo‘yicha bir qancha xalqaro konvensiyalar qabul qilingan. Ularga misol qilib, Xalqaro atom energiyasi agentligining (MAGATE) 1963-yildagi Vena

<sup>2</sup> “Amerika ovozi” jurnali “Yadroviy energiya sohasining kelajagi qanday?”

<https://www.amerikaovozi.com/a/nuclear-energy-future-119605674/827543.html>

<sup>3</sup> “Amerika ovozi” jurnali “Yadroviy energiya sohasining kelajagi qanday?”

<https://www.amerikaovozi.com/a/nuclear-energy-future-119605674/827543.html>

<sup>4</sup> Wikipedia “Yadro va radiatsiyaviy avariya va hodisalar”

[https://uz.wikipedia.org/wiki/Yadro\\_va\\_radiatsiyaviy\\_aviariya\\_va\\_hodisalar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Yadro_va_radiatsiyaviy_aviariya_va_hodisalar)



konventsiyasiga koʻra 1977 yildan kuchga kirgan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) 1960 yildagi atom energetikasi sohasida uchinchi shaxslarning javobgarligi toʻgʻrisidagi Parij konventsiyasi 1968 yildan kuchga kirgan, 1963 yildagi Bryussel qoʻshimcha konventsiyasi, Yadroviy zarar uchun qoʻshimcha kompensatsiya toʻgʻrisidagi konvensiya, Radioaktiv moddalarni xavfsiz tashish qoidalari va boshqa shu kabi xalqaro konvensiyalar hamda davlatlar oʻrtasida tuzilgan xalqaro shartnomalar ( Markaziy Osiyoni yadro qurolidan holi zonaga aylantirish boʻyicha Shartnoma , Janubi-Sharqiy Osiyo yadro qurolidan xoli hudud (SEANWFZ) shartnomasi (Bangkok shartnomasi va boshqalar) va davlatlarning ichki normativ-huquqiy hujjatlarini keltirishimiz mumkin.

Bundan tashqari, atomdan foydalanish boʻyicha Yaponiya politikasini koʻradigan boʻlsak, Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi (METI), Yaponiya hukumati (GOJ) ning manbasiga koʻra, Mavjud global energetika inqirozi davom etar ekan, fuqarolik yadroviy energetika Yaponiyaning eng maqbul toza energiya varianti sifatida qayta paydo boʻldi. 2011-yilgi Fukusima-Daichi yadroviy avariyasidan soʻng GOJ mamlakatdagi aksariyat atom energetikasi reaktorlarining ishini toʻxtatdi.<sup>5</sup> Biroq, 2050 yilgacha uglerod neytralligiga erishish uchun milliy mandatga ega boʻlgan Yaponiya yana atom energiyasini strategik energiya manbai sifatida qabul qilishga tayyor. Shuningdek, pandemiya va Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi natijasida yuzaga kelgan energetika inqirozi mamlakatni birorta yoqilgʻi manbasiga katta tayanib boʻlmasligini yana bir bor anglab etdi. Mamlakatning mahalliy energiya resurslari kamligi sababli, GOJ tezda atom energiyasini qayta tiklanadigan energiya manbalaridan keyin ikkinchi oʻrinda turadigan energiya manbai sifatida qayta joylashtirishga oʻtdi.

2022-yil avgust oyida Bosh vazir Fumio Kisida hayratlanarli nutq soʻzlab, u Yaponiyaning yadroviy reaktorlarini qayta ishga tushirish, yangi zavodlarni qurish va yangi reaktor texnologiyalarini, shu jumladan kichik modulli reaktorlarni (SMR) tadqiq etish va ishlab chiqishni kuchaytirish orqali yadroviy tiklanishini eʼlon qildi. . Uning siyosiy tashabbuslari 2023-yilning may oyida Yaponiyaning Yashil transformatsiya va karbonsizlanish uchun energiya manbalari toʻgʻrisidagi qonuniga aylandi, u qayta tiklanadigan energiyani joriy qilishni ragʻbatlantirish va atom energiyasidan maksimal darajada foydalanish uchun energiya qonunlariga oʻzgartirildi, shu bilan birga u har qanday sharoitda ham energiya taʼminotini taʼminlashni taʼkidlaydi. atom elektr stansiyalarini ekspluatatsiya qilish, texnik xizmat koʻrsatish va boshqarishning barcha jihatlari xavfsizligini taʼminlash zaruriy shartdir;

<sup>5</sup> International trade administration web.sayt 02.01.2024 “Japan’s civil nuclear power”  
<https://www.trade.gov/country-commercial-guides/japan-civil-nuclear-power>

ular yadroviy tartibga solish organi (NRA) tomonidan xavfsizlik imtihonidan o'tishlari kerak; va mahalliy hamjamiyat reaktorlarni qayta ishga tushirishga rozi bo'lishi kerak. Xususan, yangi qonun to'rtta asosiy qayta ko'rib chiqishni amalga oshirdi:

- 1) Atom energiyasini ishlab chiqarishga oid tamoyillarni oydinlashtirish;
- 2) Eski yadroviy reaktorlarga cheklovlarning kuchayishi;
- 3) atom energiyasini ishlab chiqarish uchun foydalanish muddatlari bo'yicha cheklovlarni soddalashtirish; va
- 4) “Yadroviy qayta ishlash bo'yicha Yaponiya tashkiloti (NuRO) butun mamlakat bo'ylab to'xtatilgan reaktorlarni muvofiqlashtirish uchun katta mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi va Yaponiya atom energetikasi operatorlari foydalanishdan chiqarishni to'g'ridan-to'g'ri va barqaror ravishda rag'batlantirish”.

NuRO. Eng muhimi, atom stansiyalari iqtisodiyot vaziri (METI) tomonidan tasdiqlansa, 60 yildan ortiq vaqt davomida ishlashi mumkin va barcha kengaytmalar NRA tomonidan muntazam tekshiruvdan o'tkaziladi, bu esa stansiyalarning ish holatini tekshirishdan 30 yil o'tgach tekshirish vazifasini yuklaydi. operatsiyalar va undan keyin har 10 yilda bir marta. Yangi qonun Yaponiyaning yadro siyosatini har tomonlama qayta ko'rib chiqishga yo'l ochdi, degan fikr keng tarqalgan. Fuqarolik atom energetikasi yana Yaponiyaning istalgan energiya variantlaridan biriga aylanganligi sababli, Yaponiyaning o'nta elektr energetika kompaniyasi (EPK), yirik yadro sotuvchilari va mahalliy yapon yadroviy energiya yetkazib beruvchilari Yaponiyaning atom elektr stansiyalarini xavfsiz qayta ishga tushirish uchun AQShning eng yangi fuqarolik yadro texnologiyalarini izlaydilar. samarali va iqtisodiy.

Yaponiya, shuningdek, dunyodagi ikkinchi yirik yadroviy ishdan chiqarish va zararsizlantirish (D&D) bozori bo'lib, faqat Qo'shma Shtatlardan ustun turadi. D&D loyihalari sakkiz EPCga tegishli bo'lgan kamida bitta Yaponiya elektr stantsiyasida amalga oshirilmoqda, har bir loyiha 20-30 yil davom etishi kutilmoqda. Bundan tashqari, amerikalik firmalar Yaponiyaning Fukusima Daiichi atom elektr stansiyasidagi eng mashhur va noyob D&D loyihasi uchun bir nechta mahsulot va texnologiyalarni yetkazib bermoqda.<sup>6</sup>

GOJ, shuningdek, innovatsion engil suv reaktori (ILWR), SMR, tez neytron reaktori, yuqori haroratli gaz bilan sovutilgan reaktor (HTGR) va termoyadroviy reaktor kabi yangi avlod reaktor texnologiyalarini ishlab chiqishni qidirmoqda. Bunday reaktorlarni texnik-iqtisodiy asoslashning bir necha bosqichlari ishga tushirildi va GOJ

<sup>6</sup> International trade administration web.sayt 02.01.2024 “Japan’s civil nuclear power” <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/japan-civil-nuclear-power> <sup>9</sup> International trade administration web.sayt 02.01.2024 “Japan’s civil nuclear power” <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/japan-civil-nuclear-power>



2030 va 2050 yillar oralig'ida ushbu texnologiyalardan foydalanishni boshlash intilishlari bilan o'rtoqlashdi. Yaponiyaning AQSh tijorat xizmati (CS Japan) GOJ barcha AQSh texnologiyalarini bir qismi sifatida ko'rib chiqayotganini tushunadi. ko'proq reaktorlarni tarmoqqa kiritish rejalari haqida. Sekin-asta, ammo barqaror ravishda biz Yaponiyaning yangi reaktor texnologiyalarini tadqiq qilish va ishlab chiqishda davom etishini kutamiz, bu esa AQSh yadroviy reaktori va subkomponent sanoati uchun imkoniyatlarni oshiradi.

Yetakchi kichik tarmoqlar

Quyida Yaponiyaning fuqarolik atom energetikasi sanoatining uchta yetakchi kichik sektorlari keltirilgan:

- (1) mavjud atom stansiyalarini qayta ishga tushirish;
- (2) Fukusima Daiichi atom elektr stansiyasining va boshqa avariyasiz tijorat reaktorlarining D&D;
- (3) yangi avlod reaktor texnologiyalari, shu jumladan SMRlar.<sup>9</sup>

Endilikda, atom xavfsizligi va uni tinch yo'llarda foydalanish sohalarini kuchaytirish uchun olib borilayotgan tadbirlarni xalqaro miqyosdagi harakatlar bilan qiyoslaydigan bo'lsak, Shu kungacha O'zbekiston bu sohada ancha yangilik va natijalarga erishdi buni isboti sifatida 2021-yil "Daryo.uz" yangiliklari web-saytida MAGATE O'zbekiston AES loyihasida sezilarli yutuqlarga erishdi deb hisoblashi haqida maqola chiqarilgan. Unga ko'ra, Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlikning (MAGATE) yadroviy infratuzilmani kompleks ko'rib chiqish missiyasi INIR (Integrated Nuclear Infrastructure Review)ning hisoblashicha, O'zbekiston mamlakatda birinchi atom elektrostansiyasini qurish loyihasini ishlab chiqishda sezilarli darajada progressga erishgan deya fikrga kelishgan. 12 kun davom etgan missiyada O'zbekistonning atom energetikasi dasturi davlat tomonidan yetarlicha qo'llabquvvatlanayotgani va ishonchlilik, xavfsizlik hamda tarqatmaslik borasida aniq sodiqligini namoyish etayotganini tasdiqlagan. Missiya jarayonida, MAGATE yadroviy infratuzilma rivojlanish seksiyasi rahbari Milko Kovachev hamkorligida "O'zatom" bosh direktori Jo'rabek Mirzamahmudov ham anchayin faol bo'lishgan. Bu borada, Milko Kovachev shunday fikr bergan, "Hukumat keyinchalik ham zarur huquqiy va institutsional bazani yanada rivojlantirishga e'tiborini yo'naltirgan holda qolishi juda muhim hisoblanadi" Hmada, tadbir davomida, **Prezident 4165-son qarori** ham ko'rib chiqilgan bo'lib, unda ko'zlangan rejalar haqida ham so'z yuritilgan.

Bundan tashqari, xalq xavfsizligini ta'minlash va ish rivojini oshirish bo'yicha Strategiya ya'ni, O'zbekiston Respublikasining Yadro-energetika dasturi uchun kadrlar salohiyatini rivojlantirish strategiyasi hamda, O'zbekiston Respublikasining Yadro-energetika dasturi uchun kadrlar salohiyatini rivojlantirish strategiyasini amalga



oshirish bo'yicha harakatlar rejasini tuzilgan. Bu rejalar o'z vaqtida bajarilishi va uni nazorat qilish "O'zatom" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Sog.,liqni saqlash vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi zimmalariga yuklatilgan. Hmada harakat va katta loyihalarni moliyalashtirish asoslari bo'lib, "O'zatom" agentligi va yadroenergetika dasturida ishtirok etuvchi boshqa vazirlik va idoralarning asoslantirilgan hisob-kitoblariga binoan O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti, budjetdan tashqari jamg.,armalar mablag.,lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisoblangan. Bu borada birinchi navbatda yetuk kadrlarni tayyorlash va mutaxasislarni xorijiy tajriba va ko'nikmalardan xabardor qilish masalasidagi moliyalashtirish masalasini "EL-YURT UMIDI" jamg'armasi o'z bo'yniga olgan. Qarorning 1-ilovasi Strategiyasida Birinchi energiya blokini **2028-yilda**, ikkinchi energiya blokini esa 2030-yilda foydalanishga topshirish mo'ljallanganligi takidlab o'tilgan. Hozirda shu qarorda keltirilgan asosda Rossiya hamkorligidagi Milliy tadqiqot universiteti bilan birgalikda O'zbekistonda talaba kadrlarni yadroviy sohadagi yetuk mutaxasislarni yetishtirish yuzasidan o'quv jarayonlari olib borilmoqda.

Hamda atom energetika sohasi bo'yicha mansabdor shaxs va vakolatli davlat organlarini vakolatlari haqida gapiradigan bo'lsak, mazkur qaror (**PQ-4492son**)da belgilangan vakolatli organ va mansabdor shaxslarga to'xtaydigan bo'sam, O'zbekiston Respublikasi energetika vaziri **A.S. Sultanov** zimmasiga — Strategiya va Harakatlar rejasini amalga oshirishda vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish topshirilgan. O'zbekiston Respublikasi energetika vazirining birinchi o'rinbosari — "O'zatom" agentligining bosh direktori **J.T. Mirzamahmudov**, vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar rahbarlari zimmasiga — Strategiya va Harakatlar rejasida nazarda tutilgan tadbirlarni o'z vaqtida bajarish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklatilgan. Endilikda vakolatli davlat organlari haqida so'z borar ekan, Atom energetikasidan tinch yo'llardan foydalanish sohasida bir qancha tashkilot va organlar o'z vazifalariga ega bo'lib, ular vakolat va xizmat vazifasiga ko'ra umumiy va maxsus vakolatli davlat organlariga bo'linishadi. Ulardan umumiy vakolatli davlat organlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
2. davlat boshqaruvi organi
3. Mahalliy davlat hokimiyati organlari

Atom energetika sohasi bo'yicha maxsus vakolatli davlat organlariga :

1. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, ilmiy, konstruktorlik va loyihalashtirish tashkilotlari
2. O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi

3. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog.,liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati markazi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi<sup>7</sup>

Ushbu davlat organlari va tashkilotlarining har birining o'ziga xos vazifalari bor. Ko'rib turganimizdek, har bir maxsus vakolatga ega tashkilotlar ko'p va atomdan foydalanish bo'yicha har tomonlama xavfsizlikni taminlash uchun turli xil loyiha va qo'mitalar tuzilgan. Shulardan asosiysi, O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi bo'lib uning vakolatlari mazkur qonun

(O'RQ-565-son ) ning 16-moddasida shunday keltirilgan, atom energiyasidan foydalanish obyektlarining xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini shakllantiradi va amalga oshiradi;

atom energiyasidan foydalanish xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha alohida vakolatlarga ega bo'lgan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi;

atom energiyasidan foydalanish obyektlarida atom energiyasidan foydalanish to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

atom energiyasidan foydalanish obyektlarining xavfsizligini ta'minlash ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiradi;

atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi, amalga kiritadi hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi; atom energiyasidan foydalanish obyektlarining jisman himoya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

yadroviy qurilmalarda va (yoki) saqlash punktlarida pudratchilar tomonidan bajariladigan ishlarni qabul qilib olishda ishtirok etadi;

yadroviy qurilmalarda va (yoki) saqlash punktlarida radioaktiv moddalar, yadroviy materiallar hamda radioaktiv chiqindilarning hisobiga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini ta'minlaydi; atom energiyasidan foydalanish obyektlarining va (yoki) atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyatning xavfsizligini asoslash yuzasidan ekspertizani tashkil etadi;

<sup>7</sup> ATOM ENERGIYASIDAN TINCHLIK MAQSADLARIDA FOYDALANISH TO'G'RISIDA qonun O'RQ-565-son <https://lex.uz/docs/-4506940>



atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyatni litsenziyalashni amalga oshiradi;

ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlarning xodimlariga hamda atom energiyasidan foydalanish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa yuridik shaxslarning xodimlariga atom energiyasidan foydalanish sohasidagi ishlarni olib borish huquqiga doir ruxsatnomalarni xodimlarning lavozimlari ro'yxatiga,

shuningdek ishlarning turlari ro'yxatiga muvofiq beradi;

atom energiyasidan foydalanish obyektlarining radiatsiyaviy va yadroviy xavfsizligini ta'minlash yuzasidan profilaktika choralari ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

avariyaga oid tashqi rejani ishlab chiqishda ishtirok etadi hamda davlat boshqaruvi organlarining va atom energiyasidan foydalanish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa yuridik shaxslarning avariya oida shayligi ustidan davlat nazoratini ta'minlaydi;

atom energiyasidan foydalanish obyektlaridagi noxush hodisalar va avariylarning sabablarini texnik jihatdan tekshirish tartibini tasdiqlaydi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga atom energiyasidan foydalanish chog'idagi xavfsizlik masalalari yuzasidan axborot beradi.<sup>8</sup>

**XULOSA.** Maqolaning xulosa qismiga yuzlanar ekanmiz, hozirgi kunda davlatimizda balki xalqaro miqyosda global mavzulardan biri bu aynan Atom va uning xavfsizligini ta'minlagan holda undan tinch maqsadlarda foydalanish bo'lib, o'tgan davrda davlatlar yuzlashgan radioaktiv avariylarning yuz berganiga qaramay, xalqaro tashkilotlar va davlatlar hamdo'stlikda atomdan zararlanishning xavfsizligini ta'minlash doimiy zararsiz energiya manbayiga ega bo'lish uchun har qanday samarali loyihalar ishlab chiqib, davlat bu loyihalarni amalga oshirishda davlat organlari va mansabdor shaxslarga topshiriq va vazifalar yuklagan. O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga ko'ra, maxsus vakolatli organlar va davlat organlarining vazifalari qat'iy belgilab berilgan. Bundan tashqari, Bu loyihalarni amalga oshirishda xalqaro tashkilotlar O'zbekistonga hamkorik qilib kelmoqda. Buning yaqqol misolini MAGATE agentligining O'zbekistonda olib brogan 12 kunlik islohotlar tadbirida ko'rishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N33>

<sup>8</sup> ATOM ENERGIYASIDAN TINCHLIK MAQSADLARIDA FOYDALANISH TO'G'RSIDA qonun O'RQ-565-son 16modda <https://lex.uz/docs/-4506940>

2. <https://daryo.uz/2019/08/23/atom-energetikasi-juda-qimmat-va-xatarli>
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Yadro\\_va\\_radiatsiyaviy\\_avariyalar\\_va\\_hodisalar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Yadro_va_radiatsiyaviy_avariyalar_va_hodisalar)
4. <https://www.amerikaovozi.com/a/nuclear-energy-future119605674/827543.html>
5. <https://lex.uz/docs/-4557682#-4557833>
6. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Yadro\\_energetikasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Yadro_energetikasi)
7. [https://www.norma.uz/uz/nhh\\_loyihalari/atamlarga\\_ajratdilar\\_yadro\\_energetikasi\\_qonun\\_bilan\\_tartibga\\_solinadi](https://www.norma.uz/uz/nhh_loyihalari/atamlarga_ajratdilar_yadro_energetikasi_qonun_bilan_tartibga_solinadi)

